

2-TOM, 6-SON

YOSHLARNI MA'NAVIY TAHDIDLARDAN ASRASHDA AXLOQIY
TARBIYANING O'RNI

Rashidova Baxti Yaxyaevna

Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

Alpisbay Merey YM -22-бк тобының студенти

M.O.Auezov nomli Janubiy Kazaxstan universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda yoshlarni ma'naviy tahdidlardan asrash, bu borada oilaning, axloqiy tarbiyaning o'rni, bugungi kunda dunyodagi g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, ma'naviy tahdidlar va ularni farzandlar tarbiyasi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga yosh avlodda sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida kamol toptirish masalalari va to'plangan tajribalardan kelib chiqib tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: gioballashuv, axborot xurujlari, mafkura, ma'naviy tahdidlar, virtual olam, axloq, tarbiya, dunyoqarash, milliy qadriyat

Аннотация: В современных условиях глобализации мы не должны забывать об истинных фундаментальных ценностях, которые составляют основу любого государства и общества. Важно сохранить свою самобытность, духовное наследие, доставшееся от предков. Именно в семье подрастающее поколение получает духовно-нравственное воспитание, учится быть ответственным и небезразличным. В данной статье говорится о влиянии идеологических, информационных и моральных угроз и их влияние на воспитания молодёжи. А также воспитание у молодёжи здорового мировоззрения путем укрепления духовных и нравственных ценностей в семьях в духе патриотизма национальным ценностям.

Ключевые слова: Виртуальный мир, молодёжь, идеология, информационные угрозы, глобализация, здоровое поколение, духовность, воспитание, духовный мир, семья, ответственность.

Annotation: The article discusses the influence of ideological, informational and moral threats and their influence on the education of young people. As well as raising a healthy outlook among young people by strengthening spiritual and moral values in families in the spirit of patriotism of national values.



2-TOM, 6-SON

Keywords: information threats, ideology, moral threats, education, the virtual world, morality.

Mustaqil mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi o'laroq, jamiyatimizning barcha jabhalarida munosib yutuqlar qo'lga kiritilayapti. YOshlar jamiyatning eng faol qatlami hisoblanib, ular ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalari hayotga tatbiq etuvchi asosiy omil va salohiyatli kuch hisoblanadi. Yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, huquqlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, jamiyatda o'z o'rnini egallashlari uchun qulay sharoitlar yaratish orqali ularni Vatan taqdirini hal etuvchi katta kuchga aylantirish mumkin.

Yoshlar muammolarini hal etish nafaqat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, balki butun mamlakat xavfsizligining kafolati ham hisoblanadi. Har qanday davlatning yoshlar borasidagi siyosati o'sha xalqning o'ziga xosligi, qadriyatlari, urf-odatlariga bevosita bog'liq bo'lib, er yuzining turli mamlakatlarida bu sohadagi siyosat o'zgacha shakl, mazmun va uslubda yo'lga qo'yilgan.

Biz globallashuv davrida yashayapmiz. Uning bosh xususiyati shuki, er yuzining istalgan nuqtasida paydo bo'lgan bir yangilik zudlik bilan butun dunyoga yoki uning juda katta qismiga tarqaladi. Ammo bu yaxshi yangilik bo'lishi ham, yomon yangilik bo'lishi ham mumkin. Aynan shuning uchun ham, xuddi tayoqning ikki uchi bo'lgani kabi, globallashuvning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor. Ijobiyligi shundan iboratki, bugun fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, bozor, ta'lim, madaniyat, adabiyot-san'at va boshqa sohalardagi har qanday ezgu jihat misli ko'rilmagan tezlik bilan keng tarqalyapti, qit'adan-qit'aga, yurtdan-yurtga o'tib, umumbashar mulkiga aylanib boryapti. *[1.91-bet]*

Salbiy jihati esa tezkor taraqqiyot va bozor iqtisodiyoti har qanday mamlakatga o'zining barcha noxush tomonlari bilan birga kirib keladi. Bu esa globallashuvning salbiy tomonlaridan insonlarni ehtiyot bo'lishga undaydi. YOt kuchlar zamonning ana shu xususiyatidan o'z manfaatlari, yovuz maqsadlari yo'lida foydalanishga, turli zararli g'oya va mafkuralarni dunyo bo'ylab tarqatishga zo'r berib urinaveradi. SHu tariqa hozirgi zamonda odamlar qalbi va ong-tafakkurini zabt etishga urinish o'zaro kurashning asosiy maydoniga aylanib ulgurgan. Dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Inson tamaddunining barcha davrlarida u yoki bu muammolar jamiyat ma'naviy olamiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Ayni paytda xalqimizning ma'naviy birligiga raxna solishga, yoshlarimizning yurtimizga bo'lgan ishonch-e'tiqodini buzishga urinayotgan kuchlar ham bor. Ular turli xil vayronkor, aldanchi g'oyalarni pesh qilib, yovuz va g'arazli



2-TOM, 6-SON

maqsadlarni ko'zlab, ayrim irodasi zaif yoshlardan o'z yurtiga, ona Vataniga, hatto ota-onasiga qarshi bo'lgan dushmanlarni tayyorlashga urinmoqdalar.

Bugun inson dunyoda yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy voqealardan xabardor bo'lishi murakkab va vaqt talab qilmaydigan ishga aylanib qoldi. Bir tomondan bunday jarayonlardan xabardor bo'lish inson uchun katta imkoniyat hisoblansa, ikkinchi tomondan esa virtual olamni tartibga solinmaganligi, faoliyatini maxfiyligi, matn, tasvir va ovoz uyg'unligidagi axborotni joylash kabi qulayliklar, unga kirishni osonligi, cheksiz auditoriya, ma'lumotlarni etkazish tezkorligi kabi omillar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli mojarolarni yuzaga kelishida ham qo'l kelmoqda. Axborotlashgan jamiyatda yoshlar tarbiyasi masalasi birlamchi masalalardan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida quyidagi fikrlarni bayon qildilar: "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Mana, bugun ma'naviy-ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi". Bugungi kunda yoshlarimizning aksariyati davrning ruhini to'g'ri xis etmoqda. Ayni paytda yoshlarda aql va farosatning mutanosibligini ta'minlashga bo'lgan intilish jamiyat barqarorligini mustaxkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin. Erishilgan yutuqlar qatori yoshlarimizning ayrim qismida mavjud bo'lgan, ba'zan yangidan paydo bo'layotgan salbiy holatlar, ushbu vaziyatga ayrim kattalarning munosabatiyu o'sha yoshlarning bunday illatlarga nisbatan yondashuvi xavotirli. Ba'zi yoshi ulug'larning yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan salbiy o'zgarishlarga nisbatan —zamon o'zgardi, yoshlar ham o'zgardi-da yoki bunday holni -tabiiy jarayon, sifatida tahlil qilishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy. To'g'ri, insonlar o'zgarimoqda, qadriyatlar transformatsiyasi yuz bermoqda. Ammo bu millatni, ayniqsa, yoshlarning aynishiga mutlaqo sabab bo'lmasligi lozim.

Ushbu maqsadga erishish borasida uzluksiz ta'lim muassasalarida quyidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir:

- yoshlarimizning ma'naviyat olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirish;

-shaxs axloqiy fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning rolini oshirish:



2-TOM, 6-SON

-globallashuv va axborotlashuv asrida inson miyasiga seldek bosib kirib kelayotgan axborot oqimini yoshlar ongiga to'g'ri yo'naltirish;

-g'arb dunyosidagi axloqsizliklarni madaniyat deb bilib, g'oyaviy asoslari zo'ravonlik bo'lgan "erkin turmush tarzi" targ'ibotchilarning qarashlarini cheklash va yoshlar ongida ularga qarshi immunitetni shakllantirish;

-hayosizlik va andishasizlikni "ommaviy madaniyat" deb targ'ib qilayotgan din millat tanlamasdan ma'naviy razolat botqog'iga botib, inson erkini poymol etayotgan -erkinlik" g'oyasi tarafdorlariga qarshi kurash olib borish va h.k.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash muhim masalaga aylanib bormoqda. Ajdodlar merosidagi komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmui zamonaviy tilda ifodalanganda, sharqona axloq kodeksi deyiladi. Aynan shu kodeks milliy oila idendikligining asosi bo'lib, har bir shaxsning insoniy burchi, vijdon amrida o'z ifodasini topishi shart. Zero, oilaning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash masalalarining echimidir.

Globalashuv davrini kompyutersiz, internet tarmog'isiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugun kompyuterni bilmaydigan, internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan odamlar zamondan ortda qolgan hisoblanadi. YOshlarimiz shuni his etgan holda kompyuter va internetdan foydalanishni puxta o'rganishmoqda. YAna bir jihatni aytish kerakki, bugun internetdan foydalanish uchun kompyuter sotib olish shart emas. Zamonaviy uyali telefonlar orqali internet tarmog'iga bimalol ulanish va undan istaganicha foydalanish mumkin. Xo'sh, internet ham yaxshi, ham yomon ma'lumotlar o'chog'i hisoblansa, yoshlarimiz undan bimalol foydalanayotgan bo'lsa, ular tarmoqlardan qaysi ma'lumotlarni olayotganini kim nazorat qiladi? Aytish joizki, internetdan foydalanish uchun bir oz xarajat ham kerak bo'ladi. Bu xarajatlar, albatta, oila byudjetidan ajratiladi. Biz - farzandsevar xalqimiz, hayotimizni bolalarimizga tikkanmiz, ulardan hech narsamizni ayamaymiz. Biroq... Gap shundaki, internet orqali bolalarimiz aqlan o'sib, ma'nan etuklikka erishishi, komil inson bo'lib tarbiyalanishi, ilm-ma'rifat o'rganib, ezgulikka intilishi mumkin. **[2. 31-36 - betlar]** Bugungi kunda internetdan foydalanmay turib zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo'lib etishishni mutlaqo ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Shu bilan birga, aynan internetning salbiy ta'sirida farzandlarimiz ong-tafakkurining yomon tomonga o'zgarishi mumkinligini ham nazardan qochirib bo'lmaydi. "Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi". Dono xalqimiz bu hikmatni bejiz aytmagan. Bugun aynan internet orqali fe'l-atvori o'zgarib, odamovi bo'lib borayotgan, shuningdek, jinoyatchi qiyofasiga kirib, o'zini o'zi o'ldirayotgan hamda terrorchiga aylanib, qo'lga qurol olayotgan yoshlarimiz ham yo'q emas. Hozirgi kunda ko'chalarda yurgan yoshlarga e'tibor qilinga: deyarli hammasining qo'lida zamonaviy telefon, qulog'ida go'shak. Ayrimlari dasturxon atrofida ham internet xabarlarini o'qigani-o'qigan. Atrofdagilar bilan



2-TOM, 6-SON

ishi yo‘q. Hayot bilan qiziqmay qolgan, fikri hayoli qo‘lidagi ana shu “matoh”da. Internet-kafelar ham yoshlarimiz bilan gavjum. Ammo bu erga kirgan farzandlarimiz internetdan nima maqsadda foydalandi, nimalarni oldi, qanday o‘yin o‘ynadi, kimga nima yubordi. Bularni kim nazorat qiladi, vaqtinchalik ish bilan ta‘minlanmagan yoshlarimizga nisbatan ham shunday fikr aytish mumkin. Chunki barcha yomon illatlarning ildizi bekorchilik va ishsizlikka borib taqaladi. Dunyoda g‘oyadan kuchli qurol bo‘lmaydi. Ma‘lumki, bugungi kunda yovuz kuchlar o‘z g‘arazli g‘oyalarini tarqatish uchun internetdek tayyor “dastyor”dan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqdalar. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar aynan “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib etishning eng keng tarqalgan vositasiga aylanib boryapti. Bundan farzandlarimizni asrashimiz lozim. Bu masala bugun hammani, ya‘ni, butun jamiyatni o‘ylantirishi shart. Ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamiyatda ilm-ma‘rifatni ravnaq toptirish eng muhim vositalar sirasiga kiradi. Ma‘naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan kuch – mafkuraviy immunitet. Keyingi paytlarda tilimizda “tahdidbardoshlik” degan yangi atama ham paydo bo‘ldi. Tovar bozor sharoitida raqobatdosh bo‘lgani kabi, kishilar ongi va qalbini egallash uchun kuchli raqobat kechayotgan hozirgi o‘ta murakkab va tahlikali zamonda aynan jamiyatning tahdidbardoshligini ta‘minlash ham juda muhimdir. Demak, insonlarda yuksak ma‘naviyatni shakllantirish, uni ana shu tahdidlardan asrash uchun bir lahza bo‘lsin, kurashdan to‘xtamaslik kerak ekan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. T. Ma‘naviyat. 2008.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O‘zbekiston. 2016 y.
3. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxs javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. O‘zbekiston. 2017 y.
4. Mirziyoev SH.M. Yangi Uzbekiston strategiyasi. Toshkent. "Uzbekiston" 2021 yil. B. 69.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. -Toshkent.: Uzbekiston, 2020. -B 48.
6. "Yangi Uzbekiston" Ijtimoiy-siyosiy gazeta. 2021 yil 30 oktyabr 217- son.
7. Mavrulov A. Vatanni sevish mas‘uliyati. T:—Sano-standart|| B. 46.
8. Islamov I. N. Ma‘naviyatga tahdid – kelajakka tahdid. Globallashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, echimlar va istiqbollar. Konferensiya materiallari.-T.:2009, 57 b.
9. Rashidova, B. (2022). YUKSAK MA‘NAVIYAT AVVALO INSON ODOBIDA NAMOYON BO‘LADI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.
10. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(1), 162-168.

